FITONIMLARDA XALQNING DUNYOQARASHI VA ETNOMADANIY QADRIYATLARNING AKS ETISHI

Ikromov M.T.,
Andijon davlat pedagogika instituti
o‘qituvchisi
mukhammadyusuff@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada onomastik va onomasiologik birlik hisoblangan fitonimlarning xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi, urf-odatlari, milliy va etnomadaniy qadriyatlaridagi o’rni tadqiq etilgan bo’lib. Ushbu maqola fitonimlarning shunchaki onomasiologik birlik sifatida o’simliklarning nomini anglatibgina qolmay, balki uni xalqning madaniyati va turmush tarzi bilan aloqalarini ochib berish uchun xizmat qiladi. Fitonimlarning madaniyatdagi ahamiyati, xalqning hayot tarzidagi o‘rni bevosita xalq og’zaki ijodi namunalari, tarixiy yozma manbalar va tabobatga oid materiallar asosida tahlilga tortildi. Aniqlangan ma’lumotlar etnomadaniy aspektda tahlil qilinib fitonimlarning xalqimiz hayotidagi o’rni, turmush tarzimiz va urf - odatlarimizda aks etishi, madaniyatimiz shakllanishidagi roli aniqlandi. Yakunda ushbu mavzuning dolzarbligi va keng tadqiq etish ehtiyoji ilmiy xulosalandi.

Kalit so‘zlar: fitonim, etnomadaniyat, etnosemantika, folklor, etnos, onomastika, onomasiologiya.

Onomasiologiya tilshunoslikning eng muhim bo‘limlaridan biri hisoblanadi. Chunki jamiyatda ro‘y berayotgan ijtimoiy-siyosiy, ilm-fan sohasidagi o‘zgarishlar bevosita terminologik sistemaga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Botanik terminlar esa nafaqat o‘simliklar dunyosi ifodalovchi leksik birliklar hisoblanadi, balki insonni o‘rab turgan tushunchalar dunyosining tildagi aksi hamdir. Shuningdek, tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, botanik terminlar – fitonimlar lug‘atning eng qadimgi qatlamlaridan bo‘lib, ular turli birliklarni lingvistik konseptuallashtirishda faol ishtirok etadi [1, 508-515]. **“Fitonim” atamasi** XX asrning 70-yillarida neologizm sifatida paydo bo‘ldi va aynan shu davrdan lingvistikada faol qo‘llanila boshlandi. Ilmiy doirada bu atamaning tor va keng talqini shakllangan. A.V. Superanskayaning ishida “fitonim” alohida o‘simlikning maxsus individual nomi sifatida ishlatilgan, “fitonimika” (muallifda – “fitonimiya”) esa o‘ziga xos nomlarni o‘rganuvchi onomastikaning bir bo‘lagi sifatida ko‘riladi [6, 189]. Shu ishdayoq o‘simliklarni nomlovchi so‘zlar insonning bilish jarayonini qayd etishi va uning dunyoqarashini aks ettirishi qayd etilgan: “o‘simliklar olami obyektlarini mustaqil toifaga ajratish maqsadga muvofiq, chunki turli davrlarda ular nafaqat hududiy yo‘nalishda, balki turli xil kultlar, e’tiqodlar, afsonalar bilan ham bog‘liq bo‘lgan” [6, 186-189]. Tilshunoslik doirasida “fitonim”, “fitonimika” atamalari faol ishlatilayotganiga qaramay, bir xilda umumqabul qilingan ta’rifga ega emas. Mazkur ishda biz “fitonimika”ni o‘simliklar olamiga oid nomlar majmui, “fitonim”ni esa daraxt, o‘t, buta, gul, meva va hokazolarni bildiruvchi alohida nom sifatida tushunamiz [2, 3-13].

Fitonimlar nafaqat atrof borliqdagi predmetlarning botanik xususiyatlarini o‘z ichiga oladi, balki ma’lum bir etnoslarning o‘tmishi, tafakkuri, madaniyati, dunyoqarashi, yashash tarzi va odatlari haqida ham muhim ma’lumotlarni beradi. Ayrim botanik terminlar xalqning aksiologik va stereotipik xususiyatlari haqidagi etnomadaniy ma’lumotlarni ham o‘zida mujassam etadi. Muayyan jamiyatning turli o‘simliklarga turlicha munosabatda bo‘lishi, o‘simliklarning ahamiyati va qiymatini turlicha qabul qilishini aniqlash haqidagi tadqiqotlar xalqning taraqqiyot jarayonida o‘simlilarga nisbatan munosabati qanday shakllangani va o‘zgarganligini aniq tushunishga imkon beradi.

Misol uchun: *shuvoq* o‘simligi an’anaviy slavyan madaniyatida qayg‘u, g‘azab ramzi hisoblanadi. Garchi uning xalq tabobatida shifobaxshlik (mikroblardan tozalash) xususiyati bo‘lishiga qaramay, xalq uni achchiq va yoqimsiz hidi sabab o‘simlikka salbiy tus berganini ko‘rishimiz mumkin.

Demak, Til inson kongnitiv faoliyatining eng muhim vositasi hisoblanib, olamning lisoniy manzarasi yoki atrof-borliq haqidagi madaniy g’oyalar bevosita tilda aks etadi. Til “insonning o’ziga xosligini, mavjudligini, uning olam bilan munosabatini ifodalaydi” [4, 11]. Shuningdek, Nominasiyaga oid nazariya lingvistik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. U olamning lisoniy manzarasini qanday aks ettirishini o‘rganadi. Bu manzara o‘z mohiyatiga ko‘ra “naiv” (oddiy, tabiiy) bo‘lib, bilish jarayonida shakllanadi. Nominasiyaga esa motivatsiya zamin bo‘ladi. Motivatsiya – predmet va hodisalarni nomlash aktining asosiy sharti. 1970-yillarning boshlarida shakllangan motivologiya esa nominatsiyaning bir qismi sifatida qaraladi. Shunday ekan fitonimlarni ifodalovchi nominativ birliklar va ularning turli semalari til egalarida olam haqidagi mavjud bo’lgan qarashlar va munosabatlar birlashib yagona etnolingvistik tizimni tashkil etadi. Botanik terminlar olamning lisoniy manzarasining universal nominativ tomonini ifodalaydi va ularda “til – madaniyat – etnos” yo’nalishi bo’yicha faoliyat yurituvchi etnomadaniy kod ifodalanadi. Ma’lumki, olamning lisoniy manzarasi deganda – ma’lum bir etnosning ongida tarixan shakllangan olam haqidagi bilimlar va g’oyalar majmui tushuniladi. Turli etnoslarning olam haqidagi tasavvurlar, bilimi turlicha bo’ladi. Ushbu differensiatsiya esa turli xalqlarning joylashgan hududi va atrof-borliqni idrok etish jarayonidagi milliy-madaniy xususiyatlari natijasida paydo bo’ladi. Olamning lisoniy manzarasini tashkil etuvchi birliklar orasida fitonimlar alohida o’rinni egallaydi. Masalan, turkiy tillarning qipchoq guruhiga kiruvchi Boshqird xalqi hayotida o’rmon alohida ahamiyat kasb etadi, bu esa o’simlik nomlari nominatsiyasida ham sezilib turadi. Bu o’ziga xoslikni xalqlar tomonidan o’simliklarni yoshiga qarab turlicha nomlashda ko’rishimiz mumkin. Masalan, boshqird tilida: *“саука – yosh qayin, саукалык – yosh qayinzor; сауыл – yolg’iz katta qayin daraxti, сауыллыг – eski qayinzor; муйра – yosh eman, муйралық – yosh eman o’rmoni* [3, 39]; O’zbek tilida esa o’simliklarning yoshiga nisbatan nomini ifodalovchi leksemalar mavjud emas. Lekin xalqimiz tomonidan bir turdagi o’simliklarning turlicha xususiyatrlari, tashqi ko’rinishi (*qora qarag’ay*), kirib kelgan hududiga nisbatan (*qrim qarag’ayi*), xususiyatiga qarab (*oddiy qarag’ay, shrenk qarag’ayi*) nomlanish hollari uchraydi. O’zbek va boshqird tillari genologik tasnifda ham, tipologik tasnifda ham bir guruhdan joy

olsa-da, nominatsiya jarayoni turlichaligini yuqoridagi ma’lumot ham tasdiqlaydi. Demak, tilda fitonimik leksikaning shakllanishida til egalari bo’lgan etnosning milliy-madaniy xususiyatlari, atrof muhit kabi ekstralingvistik omillar muhim rol o’ynaydi. Shuningdek, tilshunoslikda o’simliklar nominatsiyasi til egalarining o’simliklarga munosabati, ularning qimmati, ular bilan bog’liq mifologik g’oyalar qandayligi bilan belgilanadi. Shuning uchun botanik terminlar ma’lum bir etnosga xos xususiyatlarni ifodalay oladi. Shu sababli o’simliklarning nomlari tilning faqat nominativ funksiyasini emas balki xalqning etnik-madaniy xususiyatlarini saqlovchi kumilyativ funksiyasini ham ifoda etadi. Natijada o‘simlik nomlari tilda ma’lum bir simvolizatsiyaga uchraydi va etnik birlikka xos konnotativ ma’nolarni ifodalaydi. “Ma’lum o‘simlikning noyobligi yoki ko‘p tarqalganligi, foydali (tabobatda, pazandachilikda, marosimlarda ishlatilishi) yoki zararli xususiyatlari (begona o‘tligi, iste’molga yaroqsizligi, tikanlar bilan qoplanganligi, zaxarliligi va boshq.) uning xalq madaniyatidagi ijobiy yoki salbiy tushunchalar bilan assotsiatsiya qilinishiga asos bo‘ladi” [8, 22]. Demak, o’simlik nomlarini etnolingvistik taqdiq etish orqali botanik terminlar va ularning hosil bo’lish jarayoniga milliy-madaniy omillarning ta’siri masalalarini aniqlash mumkin. Ularning ma’lum bir ramziylik kasb etishi ham yuqorida ta’kidlaganimiz kabi xalqning milliy o’ziga xosligiga bog’liq holda shakllanadi. Fitonimlarning etnomadaniy va etnosemantik jihatlarini aniqlash uchun ularni xalq og’zaki ijodi namunalari, frazeologik birliklar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va etnografimizimlar tarkibida tahlil qilish lozim. Yuqoridagi birliklar tarkibida fitonimlar til egalarining madaniy, tarixiy, kasbiy va kundalik hayotini o’zida aks ettiradi. Hozirgi kunda jahon tilshunosligida botanik terminlarning etnomadaniy xususiyatlarini ochib berishda asosiy e’tibor folklorga qaratilmoqda. Chunki “Olamning folklor tilidagi manzarasi o’z mazmuniga ko’ra xalq bilimlari, g’oyalari, voqelikni baholashni …ishonchli ifodalaydi. Insonning makon va zamonda mavjudligi, uning tashqi va ichki dunyosi, madaniy an’analari, xalq mentaliteti haqidagi etnomadaniy ma’lumotlar turli lisoniy vositalar yordamida o‘ziga xos tarzda ifodalangan asosiy ma’lumotlardir” [5]. Misol uchun, o’zbek tilida *terak* leksemasi ma’noda bo’yi baland kishilarga nisbatan *“bo’yi terakdek”, “mirza terak”* birikmalarida salbiy ma’noda, aniqrog’i, *“beso‘naqay”, “qo’pol”* kabi ma’nolarda qo’llanadi. Lekin rus tilida *terak* “nozik”lik etaloni hisoblanadi. Bu turlichalikning sababi ham xalarning yashash hududiga bog’liqdir. Aniqrog’i, rus xalqi yashash hududining katta qismini o’rmonlar tashkil etadi, o’rmonlarda esa ko’plab bahaybat daraxtlar o’sadi. Shunday bahaybat daraxtlar qurshovidagi *terak* kishilarga *nozik* bo’lib ko’rinadi. Natijada, terak o’xshatish etaloni sifatida “(*девушка) как тополь” – nozik qiz* tarzida ijobiy ma’noda qo’llanadi. Bizning hududimizda *terak* keng tarqalgan ko’plab mevali va manzarali daraxtlarga nisbatan bo’yi balandligi bilan alohida ajralib turgani uchun “beso’naqay”, “qo’pol” degan tassavvur paydo qiladi.

O’zbek tilidagi botanik terminlarning etnomadaniy xususiyatlarini aniqlash uchun bir qancha tahlil usullaridan foydalanishmiz mumkin:

1) lingvistik, leksik-semantik tahlil;
2) qiyosiy – tarixiy tahlil;
3) dialektal tahlil;

4) etnomadaniy tahlil.

Yuqoridagi tahlillarninamalga oshirish uchun esa eng muhim manba – bu adabiy-badiiy manbalardir. O‘zbek tilida ham xalqimizning etnik kelib chiqishi, tarixiy rivojlanish jarayonlarida ro‘y bergan ijtimoiy-madaniy jarayonlarni, bizni qurshab turgan tabiat haqidagi tasavvurlarini ifodalab beruvchi botanik terminlar va ular bilan bog‘liq etnomadaniyat shakllangan. Botanik terminlar orqali tilimizning etnomadaniy xususiyatlarni aniqlash uchun tilimizda tarixan mavjud bo‘lgan fitonimik leksikani tadqiq etish zarur. Buning uchun esa mumtoz adabiyotimizdagi adabiy-badiiy manbalar muhim o‘rin egallaydi. Bunday manbalar ichida “Boburnoma” me’muari muhim ahamiyatga ega. Asarda Mavorounnahr, Xuroson va Hindiston tabiatiga xos fitonimlar haqida muhim ma’lumotlar beradi. Asarda, asosan, turkiy, fors-tojik va hindcha o‘simlik nomlari keltirilgan bo‘lib, ularning ayrimlari bugungi kunda ham mazmun va ifoda planini o‘zgarishsiz saqlab qolgan bo‘lsa, ayrimlarining ifoda plani, boshqalarining esa mazmun planida o‘zgarish ro‘y berganini kuzatishimiz mumkin. Har qanday holatda ham “Boburnoma”da berilgan botanikaga oid terminlar o‘zining termin sifatidagi funksiyasidan tashqari xalqimizning etnik xususiyatlarni ham madaniyatiga xos xususiyatlarini o‘zida saqlagan biomorf kod sifatida til tizimizda madaniyatga xos birlik sanaladi. Asarda berilgan ifoda plani ham mazmun plani ham o‘zgarishsiz saqlangan botanik terminlarda bu yaqqol aks etadi.

Botanik terminlarni etnomadaniy xususiyatlarini aniqlashda yuqoridagi tahlillarning barchasi birdek muhim. Lekin botanik terminlar etnomadaniy jihatdan tahlil qilinganda etnomadaniy xususiyatlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Etnomadaniy tahlilning obyekti sifatida quyidagilarni aytishimiz mumkin:

1) urf-odat, an’ana va marosimlar;
2) diniy-mifologik qarashlar va tasavvurlar;
3) xalq og’zaki ijodi va badiiy adabiyot;
4) xalq tabobati.

Demak, har bir botanik terminning etnomadaniy xususiyatlarini aniqlash uchun, dastlab, yuqorida berilgan etnomadaniy tahlilning barcha obyektlarida mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash, so’ngra, mavjud materialni ajratib olish va yakunda terminning aynan olingan kontekstda anglatayotgan semantik xususiyatlari aniqlash lozim. Tahlil jarayonida aniqlangan semalar: denotativ, konnotativ semalar terminning semantik mundarijasini tashkil qilsa, uning faqat xalqning tafakkuri va dunyoqarashi bilan bog’liq, kontekst orqali ifodalanib turuvchi simvollik semasi ana shu botanik terminning etnomadaniy xususiyatini ifodalab keladi. Etnomadaniy xususiyatlar, nafaqat daraxt, mevalar nomlari orqali, balki sabzavotlarni ifodalovchi terminlar orqali ham ifodalanishi mumkin. Fikrimizni xalqimiz hayot tarzida asosiy o’rinni egallagan sabzi termini tahlili asosida ko’rib chiqsak:

Sabzi – tarixan mavjud bo’lgan, xalqimiz hayotida alohida o’rin egallagan fitonim hisoblanadi. Bu termin tilimizga fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, o‘zbek tilining deyarli barcha shevalarida faol qo‘llanadi. Shuningdek, ko’plab tarixiy adabiy manbalarda sabzi turli nomlar bilan berilgan:

– “Boburnoma”da ham sabzi fitonimi zardak shaklida berilgan bo’lib “… bu so‘zning turkiy tilga fors tilidan o‘zlashgani, bu tilda qadim davrlardan (XI asrdan) buyon qo‘llanib kelinayotganligi aytiladi va so‘zning morfem tarkibi (zard+ak – «sarig‘cha») ko‘rsatib beriladi” . Lekin zardak so‘zi fors va tojik adabiy tilida deyarli uchramaydi. Bunga sabab esa uning shevaga xos leksema ekani bo’lishi mumkin. Ahamiyatli jihati ushbu so‘z turkiy tillarda: qirg‘iz tilida zardek, uyg‘ur tilida zardak, zadak shaklida, boshqa turkiy tillarda esa zardak, zartak shakllarida uchraydi .

–“Tarjumon” XIV asr yozma obidasida sabzi termini “кәшүр, чәмәр” shaklida beriladi.

– “Attuxfatuz zakiyatu fillug’atit turkiya”da sabzi fitonimi طورب - турп, گاشۇر - кэшур, كاشۇر - гäшӱр, كاشور - käшӱр shakllarida beriladi.

Ma’lumki, ma’lum bir tushuncha qanchalik uzoq tarixiy jarayonni bosib o’tgan bo’lsa, u bilan bog’liq etnomadaniy kodlar shunchalik ko’p va xilma-xil bo’lishi kuzatiladi:

O’zbek xalqi turmush tarzida alohida o’rin egallovchi to’y marosimi tarkibiga kiruvchi “Sabzi artar”, “Sabzi to’g’rar”, “Sabzi archdi” kabi turli nomlar bilan nomlanuvchi marosim ham sabzi termini bilan bog’liqligini ko’rishimiz mumkin. Lekin bu bog’liqlikni bevosita emas bilvosita bog’liqlik deyish mumkin. Chunki o’zbek to’ylari palov milliy taomisiz o’tmaydi, palovni esa sabzisiz tayyorlab bo’lmaydi. Demak, xalqimiz madaniyatining ajralmas qismi hisoblangan to’y – palov tushunchalarini bog’lovchi etnografizm sifatida “sabzi qiyar” marosimi paydo bo’lganini aytishimiz mumkin.

O’zbek xalqida keksa bobo va buvilarimiz nutiqda tez-tez “to’g’ralgan sabzini yema” jumlasini uchratishmiz mumkin. Bu jumla xalqimizning sabzi haqidagi diniy-mifologik tasavvurlari bilan bog’liq bo’lib, bunda to’g’ralgan sabzini “umr qisqarishi” yoki “rizqning kamayishiga” qiyos etiladi. Shuningdek, “O‘simliklar ruhiga ishonch, ularning jinslarga bo‘linishi haqidagi tassavurlar hozirgacha ma’lum darajada saqlanib qolgan. Shu sabab dehqonlarimiz erkak sabzi, piyoz, sholg‘om, g‘o‘za kabi so‘zlarni hozirgacha qo‘llashadi” . Buning natijasida, tilimizda “erkak sabizga o’xshamoq” iborasi paydo bo’lgan. Farg’ona vodiysining ko’plab joylarida iste’molda bo’lgan bu ibora ayol kishiga nisbatan (erkak sabzi yo’g’on va o’zakdan iborat bo’lib iste’molga yaroqsiz bo’lgani uchun) qo’pol, qo’rs kabi salbiy ma’nolarni ifodalash uchun xoslangan. Hozirgi kunga qadar sabzi urug‘ining erkak kishi tomonidan ekilish odati saqlanib qolgan. Agar sabzi urug’ini ayol kishi eksa, erkak sabzi unib chiqadi deb hisoblanadi. O’simliklarni jinslarga ajratish ham, jumladan, erkak sabizi birikmasi orqali etnosemantik xususiyatlarni ifodalashini ham mifologik qarashlar bilan bog’liq deb aytishimiz mumkin.

Xalqning tafakkuri, madaniyati, tarixan tarkib topgan etnik xususiyatlarini o’zida saqlovchi eng muhim obyekt ¬– bu xalq og’zaki ijodidir. Insonda borliqni o’rganish davomida olamning u yoki bu olam unsurlariga nisbatan subyektiv munosabat shakllanadi. Ushbu munosabatlar esa predmetlarning shakli, rangi, nima uchun mo’ljallanganiga qarab shakllanadi va folklor janrlar: topishmoq, maqol, xalq qo’shiqlari tarkibida saqlanib qoladi.

Sabzi terminini ham bir qancha folklor janrlar tarkibida uchratishimiz mumkin:

Piyozni mard artsin,
Sabzini – nomard (maqol).

Yuqoridagi maqolda sabzi va piyoz fitonimlari o'zaro bir-biriga zidlanmoqda. Piyozning achchiqligi sabzining mazasiga zid qo'yilmoqda…

Sariboy akam ichkari,
Soqollari tashqari (sabzi).
Iyagi yerga saragan,
Soqoli osmonga saragan, (sabzi)
"Yer ostida oltin qoziq" (sabzi)

Ushbu topishmoqlarda sabzi mevasi sariboy, iyak, oltin qoziq o'xshatishlari orqali ifodalanib, uning poyasi soqolga qiyos etilmoqda.

Undanam uchdi, dust bedanam,
Bundanam uchdi, dust bedanam.
Sabziga tushdi, dust bedanam,
Sabzi oyosli, do'st bedanam .
O'toptilar, ketoptilar,
Sabzi, piyoz oloptilar,
Kattasini sotoptilar,
Maydasini yeyoptilar.

Yuqorida berilgan xalq qo'shiqlarida ham sabzi terminining qo'llanishi ham uning xalqimiz hayotida muhim o'rinni egallashidan dalolat beradi. Xalq og'zaki ijodida hatto sabzi bilan bog'liq tez aytish ham mavjud bo'lib u quyidagicha:

Sasigan sabzini savatga solib Samarkand sayqali sayliga sotgan savdogar singlisi Salimaga sakkiz yuz sakson sakkiz so'm soliq solinsin! ¬– ushbu tez aytishda sabzi terminining qo'llanishi ohang yoki alliteratsiya talabi bilan bo'lgandir. Lekin qay maqsadda qo'llanishidan qat'i nazar uning xalq hayoti, turmush tarzining ajralmas qismi ekani shubhasizdir. Buni o'zbek etnomadaniyatining ajralmas qismi bo'lgan xalq tabobatida ham sabzidan keng foydalanishi ham isbotlaydi:

Sabzi olib, suvga solib, qaynatib so'ngra uni
Kim asal birla yesa bo'lgay uni toza xuni(qoni) – "Tabobat durdonalari" asaridan olingan yuqoridagi parchada qonni tozalash uchun qaynatilgan sabzini asal bilan iste'mol qilish zarurligi aytilmoqda.

Birinchi o'rinda ho'l-issiq sabzi,
Quvvat bo'lar suvi va yana o'zi.
Urug'i kuch berar pusht uchun ko'p soz,
Kuchlidir tog' sabzi demish bir ustoz .

Asardan olingan ushbu misralarda ham sabzining shifobaxsh xususiyatlari tilga olinib sabzi va uning suvi quvvat beruvchi vosita ekani, urug'i esa pusht uchun davo ekani, ayniqsa, tog' sabzi samaraliroq ekani ta'kidlanmoqda.

Boshga tushganda shakarli xolvaning yodi mudom,

Sabzi xalvosi dilingni aylagay ko‘p beqaror – asarning «Kanz al-ishtaxo» («Ishtaxalar xazinasi») bo‘limidan olingan misralarda sabzining yana bir shifobaxsha tomoni, ya’ni sabzidan tayyorlangan murabboning ishtaxa ochuvchi xususiyati bayon etilmoqda.

Xalq tabobati o’zbek etnomadaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Yuqoridagi misollardan ham ayonki, sabzi termini ham xalq tabobatida alohida o’rin egallaydi. Tabobatda turli kasalliklarga davo sifatida, quvvat oshiruvchi va ishtaxa ochuvchi sifatida keng qo’llanadi.

Yuqoridagilar asosida shuni xulosa qilishimiz mumkinki, botanik terminlar muayyan etnosning uzoq o’tmishi, ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti va etnik o’ziga xosliklarini o’zida saqlovchi etnomadaniy xususiyatlarni o’zida saqlaydi. Botanik terminlar semantikasi tarkibida mavjud etnosemantik xususiyatlarni aniqlash uchun esa xalqning milliy o‘zligini saqlovchi folklor namunalari, milliy urf-odatlar, marosimlar va xalq tabobatidagi o’rnini e’tiborga olish zarur. Yuqorida ta’kidlaganimiz anor fitomorf kodi, asosan, hosildorlik, serfarzandlik kabi ramziy ma’nolarni ifodalasa, “o‘rik fitomorfi esa yorning chiroyli ko‘zi, serfarzandlilik, ma’shuqa uchun oshiqning barcha qiyinchiliklarga bardoshlilik ko‘chma ma’nolarini ifodalab kelgan” . Yuqorida ta’kidalaganimizdek, o’rik etnomadaniy kontekstda baquvvatlik ramzi hisoblanadi. Fitonimlar etnomadaniy xususiyatlarni fitomorf kod sifatida frazeologik birliklar, turg‘un iboralar, maqol, topishmoq va xalq qo‘shiqlarining tarkibiy komponenti sifatida saqlaydi. Natijada, turli nutq vaziyatida ma’lum bir etnosga xos milliy qadriyat, milliy qarash, borliqqa bo‘lgan munosabatini o‘simlik nomlari va uning o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liq holda tilda aks etadi.

Foydalanilga adabiyotlar:

1. Дьякова Т. А. "Этнокультурная основа использования фитонимов лексико-семантической группы «Дикорастущие травы» (на материале сборника М. Матусовского «Земля моих отцов-Донбасс») // Вопросы журналистики, педагогики, языкознания. 38.4 (2019): – С. 508-515.
2. Аникина Т.В. Словообразовательная структура фитонимической лексики в английском и русском языках // Научный результат. Вопросы теоретической и прикладной лингвистики. – Т. 4, № 4, 2018. – С. 3–13.
3. Гималетдинова Р. Р. Фитонимы в башкирской и русской языковой картине мира/ Ill Международная научная конференция. Актуальные вопросы филологических наук. – Казань. 2015. – С. 39.
4. Постовалова В.И. Картина мира в жизнедеятельности человека // Роль человеческого фактора в языке: Язык и картина мира / отв. ред Б.А. Серебренников. – Москва: Наука, 1988. С. 11.
5. Соколова Т.С. Фольклорная версия языковой картины мира // Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки.
6. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – Изд. 2-е, испр. – Москва: URSS, 2007. – С. 189.
7. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – Изд. 2-е, испр. – Москва: URSS, 2007. – С. 186, 189.
8. Хошимхўжаева М.М. Оламнинг лисоний тасвирида фитонимлар (инглиз, рус ва ўзбек тиллари мисолида). Филол. фан. фалс. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – Б. 22.